“MABDAI NUR” ASARINING O‘RGANILISHI

Ravshanov Ozodbek Xojimurod o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Boborahim Mashrab nomi bilan bog‘liq “Mabdai nur” asarining o‘rganilish tarixi, uning muallifligi, matni, poetik xususiyatlari hamda Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” asari bilan munosabati xususida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Asarning o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi bilan bir qatorda, Turkiyada olib borilgan tadqiqotlarga ham e’tibor qaratiladi. Tadqiqotlar tahlili asosida “Mabdai nur”ning adabiy manbalari, mualliflik masalasi va matnshunoslik jihatlarini yanada chuqurroq o‘rganish zarurati asoslanadi.

Tayanch so‘zlar: Boborahim Mashrab, “Mabdai nur”, “Masnaviy”, Mashrabi soniy, mualliflik masalasi, masnaviy janri, tasavvuf adabiyoti, matnshunoslik, adabiy ta’sir, Chig‘atoy adabiyoti.

Abstract. This article analyzes scholarly research concerning the work “Mabdai nur”, associated with the name of Boborahim Mashrab. It examines the history of the work’s study, its authorship, its text, its poetic characteristics, and its relationship to the “Masnavi” of Mawlana Jalaluddin Rumi. In addition to its study within the context of Uzbek literary scholarship, the article also highlights research conducted in Turkey. Based on an analysis of existing studies, the necessity for a deeper investigation into the literary sources, authorship, and textual aspects of “Mabdai Nur” is established.

Keywords: Boborahim Mashrab, “Mabdai nur”, “Masnavi”, Mashrabi Soniy, question of authorship, masnavi genre, Sufi literature, textual criticism, literary influence, Chagatai literature.

Аннотация. В статье анализируются научные исследования, посвященные произведению “Мабдаи нур”, которое связывают с именем Боборахима Машраба. Рассматриваются история изучения этого труда, вопросы его авторства, текстологии и поэтических особенностей, а также его связь с “Маснави” Мавланы Джалаладдина Руми. Помимо исследований, выполненных в рамках узбекского литературоведения, в статье также затрагиваются работы турецких ученых. На основе анализа существующих исследований обосновывается необходимость более глубокого изучения литературных источников, авторства и текстологических аспектов “Мабдаи нур”.

Ключевые слова: Боборахим Машраб, “Мабдаи нур”, “Маснави”, Машраби Соний, вопрос авторства, жанр маснави, суфийская литература, текстология, литературное влияние, чагатайская литература.

Kirish

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida tasavvufiy qarashlar, ilohiy ishq, inson va Haq munosabati, ma’naviy kamolot masalalarini badiiy ifodalagan asarlar alohida o‘rin egallaydi. Ana shunday asarlardan biri “Mabdai nur” bo‘lib, u Boborahim Mashrab nomi bilan bog‘liq holda adabiyotshunoslikda keng muhokama qilinib kelinadi. Masnaviy janrida yaratilgan ushbu asar uch daftardan iborat bo‘lib, hajman o‘n ming baytni tashkil etadi. Asarning mazmun-mohiyati, poetik qurilishi, tasavvufiy g‘oyalari va, ayniqsa, Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asari bilan munosabati uning ilmiy jihatdan o‘rganilishiga zamin yaratgan.

“Mabdai nur”ning adabiyotshunoslikdagi tadqiqi bir necha yo‘nalishda amalga oshirilgan. Dastlabki izlanishlarda asarning qo‘lyozma va toshbosma nusxalari, Mashrab ijodiy merosidagi o‘rni hamda matni bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlarda uning muallifligi, poetik xususiyatlari va “Masnaviy” bilan mushtarak jihatlari asosiy ilmiy muammolardan biriga aylandi. Ayniqsa, asarning Boborahim Mashrabga mansubligi yoki boshqa Mashrab taxallusli ijodkor tomonidan yaratilganligi masalasi adabiyotshunoslikda turli qarashlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Shu jihatdan “Mabdai nur”ning o‘rganilish tarixini tahlil qilish nafaqat asarning ilmiy muomalaga kirib kelish jarayonini aniqlash, balki uning muallifligi, adabiy manbalari va o‘zbek mumtoz adabiyotidagi mavqeyini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Mabdai nur”ning o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi

“Mabdai nur”ning o‘rganilishida dastlabki ilmiy qarashlar Abdurauf Fitrat tadqiqotlarida uchraydi. Olim o‘zining “Tanlangan asarlar”i ikkinchi jildiga kiritilgan Mashrab ijodiga oid tadqiqotida “Mabdai nur” va Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” asari o‘rtasidagi munosabatga e’tibor qaratadi [1]. Fitratning ushbu kuzatishlari asarning badiiy manbalari va shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan adabiy omillarni aniqlash nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Xususan, “Mabdai nur” poetikasini “Masnaviy” bilan qiyosiy o‘rganish zarurati aynan shu masala bilan bog‘liq ilmiy qarashlarda namoyon bo‘ladi.

“Mabdai nur” va Mashrab ijodiy merosini o‘rganishda V.L. Vyatkinning izlanishlari ham muhim o‘rin tutadi. U Farg‘ona vodiysida yashab ijod qilgan tasavvufiy ruhdagi shoirlar faoliyatini o‘rganish jarayonida Mashrab hayoti va ijodiga alohida e’tibor qaratgan. Olimning 1923-yilda nashr etilgan “Ферганский мистик Дивана-и Машраб” nomli tadqiqoti Mashrab shaxsiyati va ijodiy merosini o‘rganish tarixidagi dastlabki manbalardan biri hisoblanadi [2]. Vyatkinning izlanishlari, avvalo, Mashrabning tasavvufiy qarashlarini va uning adabiy muhitdagi o‘rnini yoritishga xizmat qilgan.

N.S. Likoshinning 1910-yilda nashr ettirgan “Дивана-и Машраб” asari ham mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar orasida alohida ahamiyatga ega. Ushbu nashr orqali “Devonai Mashrab” matni ilmiy muomalaga kiritilgan, shuningdek, “Mabdai nur”ning qo‘lyozma va toshbosma nashrlari haqida muayyan ma’lumotlar berilgan [3]. Bu ma’lumotlar asarning matniy tarixini o‘rganish, uning turli nusxalarini aniqlash va nashrlar o‘rtasidagi munosabatni belgilash uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

“Mabdai nur”ning muallifligi masalasi esa XX asr o‘rtalaridan boshlab adabiyotshunoslikda jiddiy muhokama qilina boshladi. Bu borada G‘afur G‘ulomning “Икки Машраб” nomli maqolasi alohida ahamiyat kasb etadi. Olim mazkur maqolasida Mashrab nomi bilan bog‘liq ijodiy merosni tahlil qilib, “Mabdai nur”ning muallifi Boborahim Mashrab emas, balki Mashrabi soniy bo‘lishi mumkinligi haqidagi xulosani ilgari suradi [4]. Bu qarash asarning mualliflik masalasiga yangicha yondashuvni yuzaga keltirdi. Shundan so‘ng “Mabdai nur”ning Boborahim Mashrab ijodiga mansubligi masalasi mavjud manbalar, asarning tili, uslubi va mazmuniy xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan muammolardan biriga aylandi.

A.Abdug‘afurov tomonidan tayyorlangan “Mashrab. Tanlangan asarlar” nashri ham Mashrab ijodiy merosini o‘rganishda muhim bosqichlardan biri bo‘ldi [5]. Mazkur nashr shoir asarlarini jamlash, ularni nashrga tayyorlash va kitobxonlarga yetkazish borasida muhim ahamiyatga ega. Mashrab ijodini ilmiy asosda o‘rganish, uning asarlarini bir-biridan farqlash va ijodiy meros tarkibini aniqlashda bunday nashrlarning o‘rni katta.

“Mabdai nur” matnini zamonaviy o‘zbek yozuviga tabdil qilish borasida I. Abdullayev tomonidan amalga oshirilgan ishlar ham e’tiborga molik. Olim asarning eski o‘zbek yozuvidagi matnini hozirgi yozuvga o‘girish orqali uning keng kitobxonlar ommasi va tadqiqotchilar uchun tushunarli bo‘lishiga xizmat qilgan [6]. Xususan, Hojji Ismatulloh Abdullayev tomonidan nashrga tayyorlangan “Boborahim Mashrab. Mabdai nur” kitobi 1994-yilda O‘zbekiston

Respublikasi Fanlar akademiyasining “Fan” nashriyotida chop etilgan. 314 sahifadan iborat ushbu nashr asar matnini o‘rganish va undan ilmiy tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Keyingi yillarda “Mabdai nur”ning poetik xususiyatlari va “Masnaviy” bilan munosabatini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar ham yuzaga keldi. Xususan, N. Xasanovning “Masnaviy va Mabdai nur” nomli maqolasi ikki asarning mushtarak jihatlarini tadqiq etishi bilan ahamiyatlidir [7]. Unda asarlarning mazmuniy va badiiy yaqinligi, tasavvufiy qarashlarning ifodalanishi hamda adabiy ta’sir masalalariga e’tibor qaratilgan. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar “Mabdai nur”ni faqat alohida adabiy yodgorlik sifatida emas, balki Sharq mumtoz adabiyotidagi yirik tasavvufiy asarlar bilan uzviy aloqada o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

A.Jumanazarning “Mabdai nur va kalavaning ikki uchi” nomli maqolasi ham asarning o‘rganilish tarixini umumlashtirish va mualliflik masalasini tahlil qilish jihatidan muhimdir [8]. Muallif mazkur maqolasida “Mabdai nur” haqida ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlarni tasniflaydi, mavjud qarashlarni qiyosiy tahlil qiladi va asarning muallifiga doir masalalarga munosabat bildiradi. Bu maqolaning ahamiyatli tomoni shundaki, unda “Mabdai nur” bo‘yicha to‘plangan ilmiy qarashlar muayyan tartibga solinib, asar atrofidagi bahsli masalalarga e’tibor qaratiladi.

“Mabdai nur”ning tadqiq etilishida nafaqat o‘zbek, balki turk olimlarining izlanishlari ham alohida ahamiyatga ega. Turkiyada amalga oshirilgan tadqiqotlarda asarning Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”si bilan munosabati, matni, lug‘at tarkibi, grammatik xususiyatlari va mualliflik masalalari kengroq o‘rganilgan. Bu izlanishlar “Mabdai nur”ni Chig‘atoy adabiyoti doirasida tadqiq etish bilan birga, uning turkiy xalqlar adabiy merosidagi o‘rnini aniqlashga ham xizmat qiladi.

Jumladan, Ismoil Güleçning 2003-yilda nashr etilgan “Meşreb'in Kitab-ı Mebde-i Nur'u Mevlana’nın Mesnevi'sinin Şerhi midir?” nomli maqolasi ushbu yo‘nalishdagi muhim tadqiqotlardan biridir [9]. Muallif maqolada “Mabdai nur”ning “Masnaviy”ga munosabatini muammo sifatida qo‘yadi. Ya’ni, asar Rumiyning “Masnaviy”siga yozilgan sharhmi yoki undan adabiy ta’sirlanish asosida yaratilgan mustaqil badiiy asarmi, degan savolga javob izlaydi. Bu masala asarning janriy xususiyatlari, mazmuniy qurilishi va badiiy mustaqilligini aniqlash nuqtayi nazaridan muhimdir. Chunki ikki asar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni faqat taqlid yoki sharh munosabati bilan izohlash ularning individual poetik xususiyatlarini to‘liq ochib bera olmaydi.

Mahmud Fidancı tomonidan tayyorlangan “Şah Meşreb Menâkıbnâmesi (İnceleme-Metin-Sözlük)” nomli doktorlik dissertatsiyasi ham “Mabdai nur” bilan bog‘liq tadqiqotlar qatorida tilga olinadi [10]. Ushbu tadqiqotda asar va unga aloqador matnlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilib, matn xususiyatlari hamda lug‘at tarkibiga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotning muhim jihati shundaki, unda asarning leksik qatlamini aniqlash, tarixiy so‘zlar va til birliklarini izohlash orqali matnni chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi. Bunday izlanishlar mumtoz matnlarni nashrga tayyorlash, ularning til xususiyatlarini aniqlash va tarixiy-lingvistik jihatdan tavsiflashda muhim ahamiyatga ega.

Sadi Gedikning 2010-yilda Anqarada himoya qilingan “Baba Rahim Meşreb’in Kitâb-ı Mebde-i Nûr mesnevisi (İnceleme-Metin-Gramer-Dizin)” nomli doktorlik dissertatsiyasi “Mabdai nur”ni kompleks o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlardan biri hisoblanadi [11]. Dissertatsiyada asarning matni, grammatik qurilishi, lug‘aviy xususiyatlari va ko‘rsatkichlari tizimli ravishda tadqiq etilgan. Ayniqsa, matn, grammatika va indeksning birgalikda o‘rganilishi asarning til xususiyatlarini har tomonlama yoritish imkonini beradi. Bu jihatdan S. Gedikning tadqiqoti “Mabdai nur”ning matnshunoslik va tilshunoslik yo‘nalishlarida o‘rganilishi uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Nadirhan Hasanning “Mevlana’nın Mesnevi’si Tesirinde Yazılan Çağatayca Bir Eser: Baba Rahim Meşreb’in Mebde-i Nur Adlı Eseri” nomli maqolasi ham mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar sirasiga kiradi [12]. Muallif maqolada “Mabdai nur” haqida umumiy ma’lumot berish

bilan birga, uning “Masnaviy” ta’sirida shakllangan jihatlarini tahlil qiladi. Asarning Chig‘atoy tilida yaratilgani va Rumiyning “Masnaviy”si bilan mazmuniy-badiiy aloqalari alohida e’tiborga olinadi. Mazkur maqola ikki mumtoz asar o‘rtasidagi adabiy aloqalarni aniqlash, ularning umumiy va xususiy jihatlarini farqlash nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Turkiyada olib borilgan ushbu tadqiqotlar “Mabdai nur”ni faqat adabiyotshunoslik doirasida emas, balki matnshunoslik, tilshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirgan. Xususan, S.Gedik va M.Fidancı tadqiqotlarida matn va til masalalariga ustuvorlik berilgan bo‘lsa, I.Güleç va N.Hasan izlanishlarida asarning “Masnaviy” bilan munosabati asosiy tadqiqot obyektiga aylangan.

Xulosa

“Mabdai nur”ning o‘rganilish tarixiga nazar tashlash shuni ko‘rsatadiki, asar yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar bir necha muhim ilmiy yo‘nalishda rivojlangan. Dastlabki izlanishlarda asarning nashrlari, qo‘lyozma va toshbosma nusxalari hamda Mashrab ijodiy merosidagi o‘rni masalalariga e’tibor qaratilgan. Keyinchalik esa asarning muallifligi, poetik xususiyatlari va Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” asari bilan munosabati tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishiga aylangan.

O‘zbek adabiyotshunosligida A.Fitrat, V.L. Vyatkin, N.S. Likoshin, G‘.G‘ulom, A.Abdug‘afurov, I.Abdullayev va boshqa olimlarning ishlari “Mabdai nur”ni ilmiy o‘rganish uchun muhim asos yaratgan. Turkiyada esa I.Güleç, M.Fidancı, S.Gedik va N.Hasan kabi tadqiqotchilar asarning matni, lug‘at tarkibi, grammatik xususiyatlari hamda “Masnaviy” bilan aloqador jihatlarini chuqurroq o‘rganishga hissa qo‘shganlar.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar “Mabdai nur”ning barcha ilmiy muammolari to‘liq hal etilganini anglatmaydi. Xususan, asarning muallifligini ishonchli qo‘lyozma manbalari asosida aniqlash, mavjud nusxalarni qiyosiy matnshunoslik asosida o‘rganish, uning poetik qurilishi va badiiy xususiyatlarini keng tahlil qilish dolzarb vazifalardan bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, “Mabdai nur” va “Masnaviy” o‘rtasidagi munosabatni alohida hikoyatlar, obrazlar, timsollar, syujetlar hamda tasavvufiy tushunchalar asosida qiyosiy tadqiq etish zarur.

Umuman, “Mabdai nur” o‘zbek mumtoz adabiyotining tasavvufiy mazmun va badiiy tafakkur jihatidan muhim yodgorliklaridan biri sifatida kompleks o‘rganishni talab etadi. Uning o‘rganilish tarixini izchil tahlil qilish asarning adabiy merosimizdagi o‘rnini belgilash, mualliflik masalasiga oydinlik kiritish va Chig‘atoy adabiyotining boshqa mumtoz manbalar bilan aloqalarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat, Abdurauf. *Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild: Ilmiy asarlar*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
2. Вяткин, В. А. *Ферганский мистик Дивана-и Машраб*. – Ташкент, 1923.
3. Ликошин, Н. С. *Дивана-и Машраб*. – Ташкент, 1910.
4. Ғулом, Ғафур. Икки Машраб // *Қизил Ўзбекистон*. – 1959. – 14 февраль.
5. Машраб. *Танланган асарлар*. Нашрга тайёрловчи: А. Абдуғафуров. – Тошкент, 1980.
6. Бобораҳим Машраб. *Мабдаи нур*. Нашрга тайёрловчи: Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, 1994. – 314 б.
7. Xasanov, Nodirxon. Masnaviy va Mabdai nur // *Tafakkur ziyosi*. – 2024. – № 1.
8. Jumanazar, Abdusattor. “Mabdai nur” va kalavaning ikki uchi // *Adabiyot va san’at oynomasi*. – 2010. – № 36–38.
9. Güleç, İsmail. Meşreb'in Kitab-ı Mebde-i Nur'u Mevlana’nın Mesnevi'sinin Şerhi midir? // *İlmi Araştırmalar: Dil ve Edebiyat İncelemeleri*. – 2003. – S. 16. – S. 135–142.

10. Fidancı, Mahmut. *Şah Meşreb Menâkıbnâmesi (İnceleme-Metin-Sözlük)*. – İstanbul Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, yayımlanmamış doktora tezi. – İstanbul, 1994.
11. Gedik, Sadı. *Baba Rahim Meşreb'in Kitâb-ı Mebde-i Nûr Mesnevisi (İnceleme-Metin-Gramer-Dizin)*. – Doktora tezi. – Ankara, 2010.
12. Hasan, Nadirhan. Mevlana'nın Mesnevi'si Tesirinde Yazılan Çağatayca Bir Eser: Baba Rahim Meşreb'in Mebde-i Nur Adlı Eseri // *Tasavvuf: İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi*. – 2010/1. – S. 239–250.